

Impact Factor: 4.917

ISSN: 2181-0966


DOI: 10.26739/2181-0966

www.tadqiqot.uz

JOURNAL OF

ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

Informing scientific practices around the world through research and development



SAMARKAND
STATE MEDICAL UNIVERSITY

VOLUME 7
ISSUE 1

2026

ЖУРНАЛ СТОМАТОЛОГИИ И КРАНИОФАЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

VOLUME 7, ISSUE 1



ЖУРНАЛ СТОМАТОЛОГИИ И КРАНИОФАЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0966-2026-1>

Главный редактор:

Ризаев Жасур Алимджанович
доктор медицинских наук, профессор, ректор
Самаркандского государственного медицинского
университета, Узбекистан

Заместитель главного редактора:

Юлдашев Абдуазим Абдувалиевич
доктор медицинских наук, профессор Ташкентского
государственного стоматологического института,
Узбекистан

РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

РЕДАКЦИОННО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Ответственный секретарь: А.С. Кубаев – доктор медицинских наук, профессор

Э.Н. Билалов

доктор медицинских наук, профессор

Д.М. Достмухамедов

доктор медицинских наук, профессор

О.Э. Бекжанова

доктор медицинских наук, профессор

А.М. Хайдаров

доктор медицинских наук, профессор

Л.Э. Хасанова

доктор медицинских наук, профессор

Т.Э. Зойиров

доктор медицинских наук, профессор

Э.А. Ризаев

доктор медицинских наук, профессор

Ж.Ф. Шамсиев

доктор медицинских наук, доцент

С.Х. Юсупалиходжаева

доктор медицинских наук, доцент

Ю.А. Шукурова

доктор медицинских наук, доцент

У.Ю. Мусаев

доктор медицинских наук, доцент

А.И. Хазратов

доктор медицинских наук, доцент

А.А. Ахмедов

доктор медицинских наук, доцент

У.Н. Вахидов

доктор медицинских наук, доцент

Ж.Д. Бузрукзода

кандидат медицинских наук

М.М. Исомов

кандидат медицинских наук, доцент

Д.Ф. Раимкулова

кандидат медицинских наук, доцент

М.К. Юнусходжаева

доктор медицинских наук, доцент

Ф.Ф. Лосев

доктор медицинских наук, профессор,
заслуженный деятель науки РФ

С.П. Рубникович

академик, доктор медицинских наук,
профессор (Беларусь)

Джун-Янг Пэн

доктор медицинских наук, профессор
(Корея)

Дзинити Сакамото

доктор философии, профессор
(Япония)

М.А. Амхадова

доктор медицинских наук, профессор
(РФ)

О.С. Гилёва

академик, доктор медицинских наук,
профессор (РФ)

М.Т. Копбаева

доктор медицинских наук, профессор
(Казахстан)

А.А. Антонова

доктор медицинских наук, профессор
(РФ)

Р.О. Мухамадиев

доктор медицинских наук, профессор

Н.В. Шаковец

доктор медицинских наук, профессор
(Беларусь)

А.И. Грудянов

академик, доктор медицинских наук,
профессор (РФ)

Д.С. Аветиков

доктор медицинских наук, профессор (Украина)

Верстка: Хуршид Мирзахмедов

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

JOURNAL OF ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0966-2026-1>

Chief Editor:

Jasur A. Rizaev

*Doctor of Medical Sciences, Professor,
Rector of the Samarkand State Medical University,
Uzbekistan*

Deputy Chief Editor:

Abduazim A. Yuldashev

*Doctor of Medical Sciences, Professor of the
Tashkent State Dental Institute, Uzbekistan*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

EDITORIAL ADVISORY BOARD:

Executive Secretary: A. S. Kubaev - Doctor of Medical Sciences, Professor

E.N. Bilalov

Doctor of Medical Sciences, Professor

D.M. Dostmukhamedov

Doctor of Medical Sciences, Professor

O.E. Bekjanova

Doctor of Medical Sciences, Professor

A.M. Khaidarov

Doctor of Medical Sciences, Professor

L.E. Khasanova

Doctor of Medical Sciences, Professor

T.E. Zoyirov

Doctor of Medical Sciences, Professor

E.A. Rizaev

Doctor of Medical Sciences, Professor

J.F. Shamsiev

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

S.H. Yusupalikhodjaeva

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

Yu.A. Shukurova

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

U.Yu. Musaev

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

A.I. Khazratov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

A.A. Akhmedov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

U.N. Vakhidov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

J.D. Buzrukzoda

Candidate of Medical Sciences

M.M. Isomov

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor

D.F. Raimkulova

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor

M.K. Yunuskhodjaeva

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

F.F. Losev

Doctor of Medical Sciences, Professor,
Honored Scientist of the Russian Federation

S.P. Rubnikov

academician, doctor of medical sciences,
professor (Belarus)

Jun-Yang Peng

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Korea)

Jinichi Sakamoto

Doctor of Philosophy, Professor
(Japan)

M.A. Amkhadova

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Russian Federation)

O.S. Gileva

academician, doctor of medical sciences,
professor (Russian Federation)

M.T. Kopbaeva

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Kazakhstan)

A.A. Antonova

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Russian Federation)

R.O. Muxamadiyev

Doctor of Medical Sciences, Professor

N.V. Shakovets

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Belarus)

A.I. Grudyanov

academician, doctor of medical sciences,
professor (Russian Federation)

D.S. Avetikov

Doctor of Medical Sciences, Professor (Ukraine)

Page Maker: Khurshid Mirzakhmedov

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Rizaev Jasur Alimjanovich, Axmedova Sayyora Muxamadovna, Absalamova Nigora Faxriddinovna OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATIDAGI LEYKOPLAKIYANING KLINIKO- MORFOLOGIK DIAGNOSTIKASI.....	6
2. Xamraeva Nilufar Xamzaevna, Turayeva Feruza Abdurashidovna ODAM PAPILLOMAVIRUSI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATI KASALLIKLARINING KLINIK XUSUSIYATLARINI BAHOLASH.....	11
3. Kamilov Xaydar Pozilovich, Usmanova Lazzat Baxodirovna SURUNKALI QAYTALANUVCHI AFTOZ STOMATITDA MAHALLIY HIMOYA OMILLARINING KLINIK-DIAGNOSTIK AHAMIYATI.....	15
4. Тахирова Камола Аббаровна, Мирзаходжаева Нигина Фирдавсовна ДЕФИЦИТ ВИТАМИНОВ ГРУППЫ В КАК ФАКТОР РИСКА РАЗВИТИЯ АНГУЛЯРНОГО ХЕЙЛИТА.....	19
5. Vohidov Elbek Rahimovich MASHINASOZLIK KORXONALARI ISHCHILARIDA OG'IZ BO'SHLIG'I A'ZOLARIDAGI PATOLOGIK O'ZGARISHLAR (ADABIYOTLAR SHARHI).....	23
6. Исомов Мираскад Максудович, Ризаев Жасур Алимджанович, Мирзаев Алишер Умирзокович СОВРЕМЕННАЯ ДИАГНОСТИКА, ЛЕЧЕНИЕ И ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ЖИЗНИ ПАЦИЕНТОВ С СОЧЕТАННОЙ ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВОЙ ТРАВМОЙ.....	28
7. Axmedova Sayyora Muxamadovna, Absalamova Nigora Faxriddinovna OG'IZ BO'SHLIG'I LEYKOPLAKIYASIDA ASOSLI DIAGNOSTIKA VA DAVO ALGORITMI.....	37
8. Rizayev Jasur Alimjanovich, Xudoyqulov Shahzod Shavkatovich AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARNI STOMATOLOGIK DAVOLASHGA TAYYORLASHGA KOMPLEKS YONDASHUV.....	40
9. Махмуд Закирович Дусмухамедов, Дусмухамедов Дилшод Махмуджанович, Исроилова Жасмина Жамшидовна СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА ОТДАЛЕННЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПОСЛЕ УРАНОПЛАСТИКИ.....	44
10. Валиева Фарангиза Садиковна СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ БОЛЕВОГО ДИСФУНКЦИОНАЛЬНОГО СИНДРОМА ВИСОЧНО- НИЖНЕЧЕЛЮСТНОГО СУСТАВА У БОЛЬНЫХ С ПЕРЕЛОМАМИ НИЖНЕЙ ЧЕЛЮСТИ.....	49
11. Shernazarov Otamurod Narmuratovich SURGICAL TREATMENT METHODS FOR BENIGN THYROID NODULES.....	53
12. Ахророва Малика Шавкатовна, Ражабий Музаева Азизовна ЦЕФАЛОМЕТРИЧЕСКАЯ И ТРЕХМЕРНАЯ МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПАЦИЕНТОВ СО СКЕЛЕТНОЙ ФОРМОЙ АНОМАЛИИ ОККЛЮЗИИ III КЛАССА ПО ЭНГЛЮ.....	57
13. Saidova Muxlisa Axrorovna, Kamilov Haydar Pozilovich OSHQOZON-ICHAK KASALLIKLARI FONIDA PARODONT KASALLIKLARINING OLDINI OLISH MASALALARI.....	62
14. Болтаева Мафтуна Муминовна КЛИНИКО-БИОЛОГИЧЕСКАЯ ДИНАМИКА У ПАЦИЕНТОВ С СОЧЕТАННЫМИ ПОРАЖЕНИЯМИ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ПОЛОСТИ РТА НА ФОНЕ ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ.....	66
15. Болтаева Фазлат Муминовна КЛИНИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОРРЕКЦИИ ОЧАГОВОЙ ДЕМИНЕРАЛИЗАЦИИ ЭМАЛИ У ДЕТЕЙ С ПАЗИТАРНОЙ ИНВАЗИЕЙ.....	70
16. Zoyirov Tulqin Elnazarovich, Xaydarova Durdona Munisovna SURUNKALI PARODONTITDA PULPA JAROHATLARINING UCHRASH CHASTOTASI VA MORFOFUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	75
17. Islamova Nilufar Bustanovna, Abdukhomidov Jurabek Laziz ugli IMPROVEMENT OF METHODS FOR EARLY DETECTION OF MAXILLOFACIAL DEFORMATIONS IN CASE OF PREMATURE TOOTH LOSS.....	79
18. Akhmedov Alisher Astanovich, Mukhiddinov Shokhruxh Gafurjon ugli THE ROLE OF EVERSTICK GLASS FIBER-REINFORCED SYSTEMS IN CORRECTING TOOTH CROWN DEFECTS.....	84
19. Islamova Nilufar Bustanovna, Nurullayeva Go'zal Abdumalikovna TISHLARNI OQARTIRISH MUOLAJASIDAN KEYINGI ASORATLAR PROFILAKTIKASIDA ZAMONAVIY ADGEZIV TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	89
20. Ortikova Nargiza Xayrullayevna, Khurramova Surayyo Dustmurodovna OPTIMIZATION OF ORTHOPEDIC DENTAL TREATMENT METHODS IN PATIENTS WITH ARTERIAL HYPERTENSION.....	94
21. Akhmedov Alisher Astanovich, Toyirov Jahongir Sobirovich MORPHOFUNCTIONAL FEATURES OF ENAMEL AND PRINCIPLES OF PREVENTIVE THERAPY FOR PATIENTS WITH EARLY MANIFESTATIONS OF INCREASED TOOTH WEAR.....	99
22. Kamilov Xaydar Pazilovich, Raximova Muhabbat Azamat qizi, Xolmatova Zarnigor Dilmurod qizi BEMORNI DAVOLASH TAJRIBASI ANGULAR XEYLITNI MAHALLIY BLOKADA YORDAMIDA.....	104
23. Шукуров Ақобир Фуркатович, Иноятлов Амрилло Шодиевич, Шукурова Нодира Тиллаевна ОРГАНИЗАЦИЯ МАРШРУТА ПАЦИЕНТА И ПРАВОВАЯ ЯСНОСТЬ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ.....	109

Akhmedov Alisher Astanovich
Mukhiddinov Shokhrux Gafurjon ugli
Samarkand State Medical University

THE ROLE OF EVERSTICK GLASS FIBER-REINFORCED SYSTEMS IN CORRECTING TOOTH CROWN DEFECTS



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19539406>

ANNOTATION

The analysis of the mechanical and clinical efficiency of glass fiber-reinforced systems (EverStick) is of significant scientific importance in addressing extensive defects of the tooth crown. EverStick systems have been proven to significantly enhance the toughness of composite resins, ensuring their damage tolerance and long-term durability. One of the key achievements in this field is the ability of fiber-reinforced composites to redistribute masticatory forces across the restoration bed and reduce polymerization shrinkage strain. Specifically, the horizontal orientation of fibers in wide carious cavities (Class II MOD) on both pulpal and gingival floors enables the achievement of maximal clinical outcomes. The dentin-replacement properties of the material and the high adhesive bonding mechanisms formed with tooth tissues are scientifically grounded. The fail-safe mechanism of EverStick systems in reducing the risk of tooth fracture and their role in minimally invasive dentistry serve to maximize the preservation of healthy tooth structure.

Keywords: EverStick, fiber-reinforced composite (FRC), tooth crown defects, mechanical durability, stress distribution, dentin replacement.

Ахмедов Алишер Астанович
Муҳиддинов Шохрух Гафуржон угли
Самаркандский Государственный
Медицинский Университет

РОЛЬ СТЕКЛОВОЛОКОННЫХ СИСТЕМ EVERSTICK В УСТРАНЕНИИ ДЕФЕКТОВ КОРОНКОВОЙ ЧАСТИ ЗУБА

АННОТАЦИЯ

Анализ механической и клинической эффективности стекловолоконных армирующих систем (EverStick) имеет важное научное значение в устранении обширных дефектов коронковой части зуба. Доказано, что системы EverStick значительно повышают показатели вязкости (toughness) композитных смол, обеспечивая их устойчивость к повреждениям (damage tolerance) и долговечность. Одним из достижений в этой области является способность стекловолоконных композитов оптимизированно распределять жевательное давление по всей площади реставрации и снижать напряжение при полимеризационной усадке (shrinkage strain). В частности, горизонтальное ориентирование волокон в широких кариозных полостях (Class II MOD) на пульпарном и десневом дне позволяет достичь максимальных клинических результатов. Научно обоснованы свойства материала по замещению дентина (dentin replacement) и механизмы формирования прочной адгезивной связи с тканями зуба. Механизм «безопасного отказа» (fail-safe) систем EverStick в снижении риска перелома зуба и их роль в минимально инвазивной стоматологии служат максимальному сохранению здоровых тканей зуба.

Ключевые слова: EverStick, стекловолоконный композит (FRC), дефекты коронки зуба, механическая прочность, распределение стресса, замещение дентина.

Ahmedov Alisher Astanovich
Muhiddinov Shohruh G'afurjon o'g'li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

TISH TOJ QISMI NUQSONLARINI BARTARAF QILISHDA EVER STICK SHISHAIONOMERNING O'RNI

ANNOTATSIYA

Stomatologik restavratsiyaning dolzarb muammolaridan biri — tish toj qismining keng koʻlamli nuqsonlarini bartaraf etishda shisha tolali mustahkamlovchi tizimlarning (EverStick) mexanik va klinik samaradorligi tahlili muhim ilmiy ahamiyatga ega. EverStick tizimlari kompozit qatronlarning qattiqlik koʻrsatkichlarini sezilarli darajada oshirib, ularning shikastlanishga bardoshlilikini va uzoq muddatli chidamliligini taʼminlashi isbotlangan. Shisha tolali kompozitlarning chaynash bosimini restavratsiya maydoni boʻylab optimallashtirilgan tarzda taqsimlash xususiyati hamda polimerizatsiya qisqarishi kuchlanishini kamaytirishdagi roli ushbu sohadagi yutuqlardan biridir. Xususan, keng karioz boʻshliqlarda (Class II MOD) tolalarning gorizontall yoʻnalishda joylashtirilishi klinik natijalarni maksimal darajaga koʻtarish imkonini beradi. Materialning dentin oʻrnini bosuvchi xususiyati va tish toʻqimalari bilan shakllanadigan yuqori adgezion bogʻlanish mexanizmlari ilmiy asoslangan. EverStick tizimlarining tish sinish xavfini kamaytirishdagi xavfsiz nosozlik mexanizmi va minimal invaziv stomatologiyadagi roli tish toʻqimalarini maksimal darajada saqlashga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: EverStick, shisha tolali kompozit (FRC), tish toj nuqsonlari, mexanik chidamlilik, stress taqsimoti, dentin oʻrnini bosish.

Kirish. Terapevtik stomatologiyaning zamonaviy bosqichida tish toj qismining keng koʻlamli nuqsonlarini funksional va estetik jihatdan uzoq muddatli qayta tiklash eng dolzarb muammolardan biri boʻlib qolmoqda. Anʼanaviy kompozit materiallar chaynash bosimi yuqori boʻlgan tishlar restavratsiyasida koʻpincha moʻrtlik va polimerizatsiya qisqarishi natijasida yuzaga keladigan mikrosızıntlar hamda sinishlar tufayli kutilgan klinik natijani bermasligi mumkin. Shu sababli, restavratsiyalarning mexanik chidamliligini oshirish va xavfsiz nosozlik mexanizmini taʼminlash maqsadida shisha tolali mustahkamlovchi tizimlar (EverStick/FRC) stomatologiya amaliyotiga yuqori texnologik yechim sifatida kirib keldi. EverStick tizimlari polimer matritsaga kiritilgan silanlangan shisha tolalaridan iborat boʻlib, ular kompozit qatronlarning qattiqlik koʻrsatkichlarini va shikastlanishga bardoshlilikini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu materiallar biomimetik yondashuv asosida tishning dentin qatlami mexanik xususiyatlarini takrorlaydi va tish tojida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan yoriqlar tarqalishini samarali toʻxtatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ayniqsa II sinf (MOD) kabi keng karioz boʻshliqlarda shisha tolalarni gorizontall yoʻnalishda joylashtirish chaynash bosimini restavratsiya maydoni boʻylab optimallashtirilgan tarzda taqsimlash imkonini beradi. Bundan tashqari, EverStick tizimlarining yuqori adgezion bogʻlanish xususiyati minimal invaziv stomatologiya prinsiplariga toʻla javob bergan holda, tishning sogʻlom toʻqimalarini maksimal darajada saqlab qolishga xizmat qiladi. Materialning polimerizatsiya qisqarish kuchlanishini kamaytirishi va uzoq

muddatli mexanik yuklamalarga chidamliligi tish toj qismi nuqsonlarini bartaraf etishda uning oʻrnini beqiyos qiladi. Ushbu texnologiyani klinik amaliyotda qoʻllash tishlarning sinish xavfini kamaytirib, murakkab restavratsiyalarning ishonchlilikini yangi bosqichga koʻtaradi.

Tadqiqotning maqsadi tish tojining keng koʻlamli nuqsonlarini restavratsiya qilishda EverStick shisha tolali mustahkamlovchi tizimlarining (fiber-reinforced composites — FRC) mexanik barqarorligini, biomimetik xususiyatlarini va uzoq muddatli klinik samaradorligini kompleks baholashdan iborat

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqotga 2023–2025-yillar davomida Samarqand davlat tibbiyot universiteti klinikasida ortopedik stomatologik davolanish uchun murojaat qilgan 18 yoshdan 55 yoshgacha boʻlgan 40 nafar bemor kiritildi. Barcha bemorlarda doimiy tishlarning toj qismi endodontik davolashdan soʻng qisman yoki toʻliq yoʻqotilgan boʻlib, ularni shtift–oʻzakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklash zarurati mavjud edi.

Qoʻllanilgan shtift tizimiga qarab bemorlar ikki guruhga boʻlindi:

I-guruh (n = 20) — standart shisha tolali shtiftlar yordamida qayta tiklangan tishlar;


II-guruh (n = 20) — individual moslashtirilgan EverStick tolali shtiftlari qoʻllanilgan holatlar.

Davolash usulini tanlashda ildiz kanalining anatomik xususiyatlari, dentin devorlarining qalinligi, ildiz uzunligi va taxminiy okklyuzion yuklama darajasi hisobga olindi.

Rasm1. Tish toj qismi yoʻqotilgan tish



Rasm2,3. Izolyatsiyalangan holda EverStick yordamida tiklash



Rasm4. Tish toj qismi tiklangan tish

Klinik va rentgenologik baholashdan so'ng ildiz kanali shtift o'rnatish uchun tayyorlandi. Shtift joylashadigan kanal uzunligi ildiz uzunligining 2/3 qismidan oshmagan holda shakllantirildi va apikal germetiklikni ta'minlash uchun kamida 4 mm obturatsion material saqlab qolindi. Kanalni shakllantirish ishlari qo'llanilgan shtift tizimi ishlab chiqaruvchisi tavsiyalariga muvofiq amalga oshirildi.

Shisha tolali va EverStick shtiftlar adgeziv usulda, ikki marta qotuvchi kompozit sementlar yordamida fiksatsiya qilindi. EverStick shtiftlari ildiz kanalining individual anatomiyasiga moslashtirilib, klinik sharoitda fotopolimerizatsiya qilindi. O'zak (kulteva) qismi yorug'lik bilan qotuvchi kompozit materiallardan shakllantirildi.

Restavratsiyalarning klinik samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- restavratsiyaning funksional barqarorligi;
 - chaynash yuklamasi ostida mustahkamligi;
 - og'riq sezgilari va patologik harakatchanlikning yo'qligi;
 - chetki moslashuv sifati;
 - estetik ko'rsatkichlar;
 - ildiz va periapikal to'qimalarning rentgenologik holati.
- Nazorat ko'rikleri davolashdan so'ng 6 va 12 oy muddatlarda o'tkazildi.

Rentgenologik tekshiruv usullari

Rentgenologik nazorat maqsadida og'iz ichki nishonli rentgenografiya qo'llanildi. Unda shtiftning ildiz kanalidagi holati, tsement qatlamining bir tekis taqsimlanganligi, periapikal patologiya va ildiz rezorbsiyasi belgilari baholandi.

Statistik ma'lumotlarni qayta ishlash

Olingan ma'lumotlar standart kuzatuv kartalarida qayd etildi. Miqdoriy ko'rsatkichlar uchun o'rtacha qiymat va standart og'ish hisoblandi. Natijalar guruhlar o'rtasida tavsifiy statistik tahlil yordamida solishtirildi.

Tadqiqot Xelsinki deklaratsiyasi talablariga muvofiq amalga oshirildi. Barcha bemorlardan davolash va klinik ma'lumotlardan ilmiy maqsadlarda foydalanish uchun yozma ravishda ongli rozilik olindi.

Tadqiqot natijalari**Bemorlarning klinik tavsifi va davolash hajmi**

Tadqiqot davomida 40 nafar bemorda jami 58 ta doimiy tish shtift-o'zakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklandi. Tiklangan tishlarning asosiy qismini yuqori va pastki jag'ning premolyar hamda molyar tishlari tashkil etdi, bu esa mazkur tishlarning funksional yuklamasi yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Bemorlarning aksariyatida tish toj qismi 50–70% gacha yo'qotilgan bo'lib, ayrim holatlarda toj qismi deyarli to'liq yemirilganligi qayd etildi. Endodontik davolashdan so'ng ildiz kanallarining holati klinik va rentgenologik usullar yordamida baholanib, shtift o'rnatish uchun yaroqliligi tasdiqlandi.

Jadval 1. Tadqiqotda tiklangan tishlar rning joylashuviga ko'ra taqsimlanishi

Tish guruhi	Tiklangan tishlar soni	Ulushi (%)
Kesuvchi tishlar	12	20.7
Qoziq tishlar	9	15.5
Premolyarlar	18	31.0
Molyarlar	19	32.8

Izoh: Jadvaldan ko'rinib turibdiki, eng ko'p tiklash ishlari chaynash yuklamasi yuqori bo'lgan molyar va premolyar tishlarda amalga oshirilgan.

Klinik moslashuv va erta davr natijalari

Davolashdan keyingi dastlabki 7–14 kun davomida bemorlarning shikoyatlari, og'riq sezgisi va yumshoq to'qimalarning holati baholandi. Bemorlarning katta qismida shtift-o'zakli konstruksiyalarga moslashuv muammosiz kechdi.

Jadval 2. Davolashdan keyingi 14 kun ichidagi klinik holatlar

Klinik ko'rsatkichlar	Bemorlar soni	Ulushi (%)
Og'riqsiz holat	34	85.0
Yengil noqulaylik	5	12.5
Og'riq sindromi	1	2.5

Izoh: Qayd etilgan yengil og'riq holatlari qisqa muddatli bo'lib, qo'shimcha dori vositalarisiz bartaraf etildi.

Funksional samaradorlikni baholash natijalari

Tishlarning chaynash funksiyasi davolashdan oldin va keyin taqqoslama asosida baholandi. Shtift-o'zakli konstruksiyalar yordamida tiklangan tishlarda chaynash samaradorligi sezilarli darajada oshgani aniqlandi.

Jadval 3. Chaynash funksiyasining tiklanish ko'rsatkichlari

Baholash bosqichi	O'rtacha ko'rsatkich (%)
O'rtacha ko'rsatkich (%)	54,2 ± 4,0
Davolashdan keyin	87,6 ± 3,2

Izoh: Natijalar shtift–o'zakli konstruksiyalar funksional tiklanishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Rentgenologik nazorat natijalari

Rentgenologik tekshiruvlar davolashdan so'ng 3 va 6 oy o'tgach amalga oshirildi. Baholash jarayonida shtiftning ildiz kanalida joylashuvi, periapikal sohaning holati va suyak to'qimasidagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Jadval 4. 6 oylik rentgenologik baholash natijalari

Rentgen belgilar	Holatlar soni	Ulushi (%)
O'zgarishsiz holat	37	92.5
Yengil periapikal o'zgarishlar	2	5.0
Salbiy dinamikalar	1	2.5

Izoh: Rentgenologik ma'lumotlar shtift–o'zakli konstruksiyalarning biologik mosligi va barqarorligini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, endodontik davolashdan so'ng tish toj qismi yo'qotilgan bemorlarda shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklash yuqori klinik va funksional samaradorlikka ega. Asoratlari kam uchraydi, ular tishlarni uzoq muddat saqlab qolish imkonini beradi.

Mazkur natijalar O'zbekiston sharoitida zamonaviy ortopedik stomatologik yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Natijalarni muhokama qilish

Mazkur tadqiqotda olingan natijalar tish toj qismi nuqsonlarini shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklashning klinik va funksional samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan solishtirildi va ularning o'zaro mosligi aniqlandi.

Ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, endodontik davolangan tishlarda toj qismining katta hajmda yo'qotilishi tishning mustahkamligi va uzoq muddatli prognoziga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bizning kuzatuvlarimizda ham toj qismi 50–70% gacha yemirilgan tishlarda shtift–o'zakli konstruksiyalar qo'llanilishi tishlarning funksional barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot davomida bemorlarning 85,0% ida davolashdan keyingi dastlabki davrda og'riqsiz holat qayd etilishi shtift–o'zakli konstruksiyalarning yaxshi moslashuvchanligini ko'rsatadi. Bu natijalar bir qator mualliflarning ma'lumotlari bilan mos kelib, ular zamonaviy o'zakli konstruksiyalar ildiz dentiniga yaqin elastik modulga ega bo'lgani sababli yuklamani bir tekis taqsimlashini ta'kidlaydilar.

Funksional baholash natijalari muhim klinik ahamiyatga ega bo'lib, chaynash samaradorligining 54,2% dan 87,6% gacha oshgani qayd etildi. Bu holat shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida tiklangan tishlarning nafaqat anatomik shakli, balki fiziologik funksiyasi ham samarali tiklanganini ko'rsatadi. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, funksional tiklanish darajasi davolashning uzoq muddatli muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Rentgenologik nazorat natijalariga ko'ra, bemorlarning 92,5% ida periapikal sohada patologik o'zgarishlar aniqlanmadi. Bu ko'rsatkich shtift–o'zakli konstruksiyalar o'rnatilishida endodontik davolash sifatining yuqori darajada bajarilgani va

biologik mos materiallardan foydalanilganini ko'rsatadi. Ayrim hollarda kuzatilgan yengil periapikal o'zgarishlar klinik ahamiyatga ega bo'lmay, dinamik kuzatuv jarayonida regressiyaga uchraydi.

Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sharoitida zamonaviy shtift–o'zakli konstruksiyalarni qo'llash an'anaviy ortopedik davolash usullariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega. Xususan, davolashning nisbatan qisqa muddatda bajarilishi, estetik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi va asoratlari sonining kamligi ushbu usulning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Shu bilan birga, tadqiqotda bemorlar sonining cheklanganligi va uzoq muddatli (1–3 yil) kuzatuv natijalarining yo'qligi ma'lum darajada cheklov sifatida baholanishi mumkin. Kelgusida kengroq klinik material va uzoq muddatli kuzatuvlar asosida olib boriladigan tadqiqotlar ushbu yo'nalishning ilmiy asoslarini yanada mustahkamlashi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida tish toj qismi nuqsonlarini qayta tiklash usulining klinik jihatdan asoslanganligi va amaliy stomatologiyada keng qo'llashga loyiq ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosalar. O'tkazilgan klinik tadqiqot natijalari asosida quyidagi yakuniy xulosalar chiqarildi:

Endodontik davolashdan so'ng tish toj qismi qisman yoki to'liq yo'qotilgan bemorlarda shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklash usuli yuqori klinik va funksional samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv tishlarning anatomik shakli va fiziologik funksiyasini tiklash imkonini beradi. Tadqiqot davomida 40 nafar bemorda 58 ta doimiy tish shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida muvaffaqiyatli qayta tiklandi. Davolashdan keyingi erta davrda bemorlarning 85,0% ida og'riqsiz holat kuzatilib, moslashuv jarayoni asoratsiz kechdi. Funksional baholash natijalariga ko'ra, chaynash samaradorligi davolashdan oldingi 54,2 ± 4,0% ko'rsatkichdan davolashdan keyin 87,6 ± 3,2% gacha oshdi. Bu holat shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida tiklangan tishlarning funksional jihatdan to'liq faoliyat ko'rsatishini tasdiqlaydi. Rentgenologik nazorat tekshiruvlari natijalariga asosan, bemorlarning 92,5% ida periapikal sohada patologik o'zgarishlar aniqlanmadi. Bu esa endodontik davolash sifatining yuqori darajada bajarilgani va qo'llanilgan o'zakli konstruksiyalarning biologik mosligini ko'rsatadi. Olingan natijalar zamonaviy shtift–o'zakli konstruksiyalarni qo'llash an'anaviy ortopedik davolash usullariga nisbatan bir qator

ustunliklarga ega ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, tish ildizi devorlariga tushadigan yuklamaning bir tekis taqsimlanishi, estetik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi va asoratlarning xavfining kamayishi ushbu usulning muhim afzalliklaridandir. Tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida tish toj qismi nuqsonlarini zamonaviy o'zakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklash

usulini ortopedik stomatologiya amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiq ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Umuman olganda, shtift-o'zakli konstruksiyalar yordamida tish toj qismi nuqsonlarini tiklash usuli klinik jihatdan samarali, biologik jihatdan asoslangan va amaliy stomatologiyada keng qo'llashga loyiq usul hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ризаев Ж.А., Ахмедов А.А. Ортопедическая стоматология: современные подходы к восстановлению коронковой части зубов. – Самарканд, 2022.
2. Ризаев Ж.А. Клинические аспекты ортопедического лечения депульпированных зубов. – Ташкент: Медицина, 2021.
3. Ахмедов А.А., Нурматов Ш.Б. Штифтово-культевые конструкции в стоматологии. – Ташкент, 2020.
4. Ferrule effect and post-core restorations: A systematic review // Journal of Prosthetic Dentistry. – 2019.
5. Morgano S.M., Milot P. Clinical success of fiber posts // Journal of Prosthetic Dentistry. – 2020.
6. Bitter K., Meyer-Lueckel H. Fiber-reinforced post systems // International Endodontic Journal. – 2018.
7. Schwartz R.S., Robbins J.W. Post placement and restoration of endodontically treated teeth // Journal of Endodontics. – 2017.
8. Akkayan B., Gulmez T. Resistance to fracture of endodontically treated teeth restored with different post systems // Journal of Prosthetic Dentistry. – 2019.
9. Naumann M., Sterzenbach G. Influence of post material on stress distribution // Dental Materials. – 2021.
10. Fokkinga W.A. et al. A systematic review on survival of post-retained restorations // International Journal of Prosthodontics. – 2018.
11. Heydecke G., Peters M.C. The restoration of endodontically treated teeth // Journal of Adhesive Dentistry. – 2019.
12. Ferrari M., Vichi A., Mannocci F. Fiber posts and their clinical applications // American Journal of Dentistry. – 2020.
13. Al-Omiri M.K., Mahmoud A.A. Fracture resistance of teeth restored with fiber posts // Journal of Oral Rehabilitation. – 2019.
14. Torbjorner A., Fransson B. A literature review on prosthetic treatment of structurally compromised teeth // International Journal of Prosthodontics. – 2018.
15. Sidoli G.E., King P.A. Effect of post design on root fracture // Journal of Prosthetic Dentistry. – 2017.
16. Mancebo J.C., Jimenez-Castellanos E. Comparison of metal and fiber posts // Dental Traumatology. – 2020.
17. Boschian Pest L. et al. Adhesive post-endodontic restorations // Dental Materials Journal. – 2021.
18. Plotino G., Grande N.M. Clinical evaluation of fiber post systems // Journal of Endodontics. – 2019.
19. Кузнецов В.В. Современные материалы в ортопедической стоматологии. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2021.
20. Al-Ali K. Prosthodontic management of endodontically treated teeth // Saudi Dental Journal. – 2022.

ЖУРНАЛ СТОМАТОЛОГИИ И КРАНИОФАЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000